

KICHIK SHAHARLARDA JAMOAT MARKAZLARINI QAYTA QURISH VA FOYDALANISH TAMOYILLARI

Sultanov D.U., Raximov K.I.

Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish Universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston shaharlaridagi jamoat markazlarining ko'rsatgan xizmatlari, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy o'zgarishni ta'minlash kabi sohalarida fuqarolar uchun qanday foyda keltirishini haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Regenerasiya, modellashtirish, kompozisiya, xajmiy, fazoviy, funksiyalari, konstruktiv, elementlari

Hozirgi zamon amaliyotida jamoat markazlarini shakllantirishni o'rganishda xar hil turdagi salbiy tendensiyalar va shaharsozlik arxitekturasi talablaridan chekinish metodologik qoidalarga rioya qilinmaslikdan dalolat beradi. Buning oldini olish maqsadida ham rekonstruksiya ishlarini, ham loyihalash jarayonini butunlay shakllantirish lozim. Vaziyatni tokomillashtirishning yangi takliflari esa jamoat markazlarining shaharsozlik arxitekturasida modellashtirish strukturasi yangi yo'llarini izlash bilan bog'liq. Buning ayni muddaosi esa zamonaviy informasion tizimlar va loyihalashning kompyuterlashgan metodlari va vositalaridan foydalanish deb hisoblaymiz.

Oldimizda o'tmish malakasi hamda regenerasiya yechimlari va shaharsozlik loyihalarini uzida mujassam etgan yagona umumlashgan nazariya modeli yaratish vazifasi turibdi. Ushbu vazifa yechimi ostida jamoat markazlari arxitekturaviy-rejaviy rivojlanish konsepsiyasi yotadi.

Bunda arxitekturaviy-rejaviy tizim va jamoat markazlari asosiy komponentlari aniqlanishi kerak. Ya'ni kompozisiya, xajmiy fazoviy o'lchamlar, funksional zonalashtirish kabilar kiradi.

Jamoat markazlarining zamonaviy rivojlanish amaliyoti ularning qurilishi va regenerasiyasi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi masalalar yechimini izlashda qo'l keladi:

- milliy an'analar va tashkil topgan landshaft tizimini inobatga olgan holda kompozisiyaning arxitekturaviy-rejaviy yechimi.
- an'anaviy xizmat ko'rsatish qulayliklaridan foydalanib jamoat markazlarini joylashtirish.
- jamoat markazlaridan boshlang'ich funksiyalari va yangi madaniy, ma'rifiy, sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishda foydalanish.

Ushbu prinsiplarni tanlash shaharsozlik munosabatlarida murakkab tizim yaratishda aholiga qulayliklar yaratish, tejamkor foydalanish, jamoat markazi arxitekturaviy qiyofasini yaxshilash, atrofidagi muhit va madaniy-maishiy xizmat strukturasi shakllantirish hamda xududni obodonlashtirish tadbirlarini olib borish bilan belgilanadi.

Jamoat markazlarini oqilona tashkil etish usullarini topish uchun avvalambor ularning yuqotilgan kamchiliklarini tiklangan holda kelajak avlodga yetkazish kerak. Bularning barchasi ilmiy tadqiqot usullarida o'z aksini topadi.

Ammo, jamoat markazlarini yuqotilgan ahamiyatga moyilik jihatlari tiklangan qismlarini qo'riqlash haqida gap ketganda regenerasiya qilishda yuqorida keltirilgan prinsiplar, o'zgartirishlar va qo'shimcha alohida izlanishlarsiz amalga oshmaydi.

Bizga ma'lumki, tarixiy obidalarni asrash, ayniqsa xayotiy jarayondagi ma'lum ajralmas qismlarini jamiyat strukturasi chiqmagan holda, saqlanayotgan obyektni xayotiy tizimga bog'lash bilan amalga oshiriladi. Xar qanday insonni jamoaviy qadr-qimmatga ega bo'lgan madaniy obidalarining vayronaga aylanishi befarq qoldirmaydi. O'z qiymatini yuqotgan madaniy obyekt uchun vayronaga aylanish odatiy hol. Aksincha madaniy obyektning boshlang'ich funksiyalari va jamiyat ehtiyojlariga mos kelmaydigan holda nouriin faol foydalanish bundan xam achinarli ahvoldir. Bundan quyidagi shartlar kelib chiqadi:

- zamonaviy talablar boshlang'ich kompozision-fazoviy, rejaviy, konstruktiv va arxitekturaviy badiiy tuzilishiga ta'sir qilmasligi lozim.
- yangi funksional belgilar jamoat markazini zamonaviy muhitga qo'shilishiga, madaniy-estetik qimmatga mos kelishi kerak. U mahalliy aholi turmushi va madaniyati, hamda ijtimoiy hayot tizimi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Ko'rinib turganidek, ushbu holatda madaniy obidalaridan oqilona foydalanish muammosi birinchi urinda turadi. Faol ilmiy izlanish natijasida obyektning mohiyati keng ommaga namoyon bo'lishi kerak.

Ilmiy tadqiqot jarayonida shaharsozlik holati jamoat markazlarining jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda joylashishi o'rganiladi. Bunday turdagi talablar rekonstruksiya qilinayotgan obyektning shaharsozlikdagi o'rnini o'rganishda asos bulib xizmat qiladi.

Jamiyat ehtiyojlarini bilish, aholining rekonstruksiya tarkibiy qismlariga munosabatini aniqlash lozim. Izlanish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich ikki guruhdan tashkil topgan.

- ijtimoiy buyurtma asosida rekonstruksiya maqsadlarini aniqlash. Ya'ni, jamoat markazlari an'anaviy funksiyalarini tadbiiq etish, ularning birlamchi madaniy-marifiy jihatlari qayta tiklash. Ijtimoiy ehtiyoj birinchi bosqichda-jismoniy parametrlar (maydon, hajm, o'rinlar soni va maishiy xizmat); ikkinchi bosqichda-estetik xususiyatlar majmuasi (kompozisiya, butunlik, yahlitlik va h.z.) orqali aniqlanadi.

- jamoat markazlarining eng oqilona rejabiy tizimi vazifalarning ko'payishi, rejabiy o'lchamli, ta'sir doirasi, xizmat kursatayotgan jamoat markazlari soni, ularning aholi foydalanishi va h.z.larning rivojlanishi bilan aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich-galdagi vazifalardan kelib chiqqan holda eskiz va broshyuralar tayyorlash. Eskizlarda hosil bo'lgan muammolarni aks etishdan tashqari hom taklif chizmalar va fotosur'atlar tashkil topishi mumkin. Ushbu eskizlar orasidan tanlanganlari asosida tulasincha rekonstruksiya loyihasi ustida ishlash boshlanadi.

Bundan jamoat markazlari arxitekturasining qoniqarli funksional jihatlari aniqlandi. Bular: ma'muriy-boshqaruv, ma'daniy-ma'rifiy, savdo-sotiq va ho'jalik, sport va sog'lomlashtirish, dam olish va bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish. Natijalarini o'rganishda va ularni tizimlashtirilganda funksional vazifalarga qarab xonalarning tuzilishi belgilandi

Kichik shaharning qismida joylashgan jamoat markazlarida yashovchi aholining bo'sh vaqtlarini o'tkazish joylari ko'p emas-kinoteatr, kafe-restoranlar ularga yaqin joylashmagan. Bizning jamoat markazlarining markazi yechimida bo'sh vaqtni maroqli o'tkazishga butunlay boshqa turdagi fikr diniy ma'rifiy hayotga qaytishga, kent turdagi dam olishga, sport va badiiy tugaraklar, san'at va diniy ishlar bilan shug'ullanishga imkon yaratadi. Bunda aholining barcha qatlamlari, yosh-u qarilar ehtiyojlari inobatga olinadi [20]

Shubhasizki, jamoat markazining ko'p turdagi funkcionalligi uning chegarasini asosiy funksiyalariga ajratgan holda zonalashtirishga to'g'ri keladi. Aholiga teng nisbatda xizmat ko'rsatish uchun ilmiy tadqiqot natijalaridan aniqlangan funksiyalar: ma'daniy-ma'rifiy, diniy, ma'muriy-boshqaruv, savdo-sotiq va ho'jalik, ayniqsa aholi ko'p foydalanadigan bo'limlarga piyodalar yo'laklarini joylashtirishga asoslangan holda zonalashtirish kerak. An'anaviy o'zbek shahrining xajmiy-fazoviy strukturasi yechimini topish shahar xajmiy muhiti, jamoat markazi xajmiy muhiti, hovlili xajmiy muhit va obodonlashtirishning asosiy elementlari bilan yakunlanadi.

Jamoat markazini zonalarga ajratishda namayon bo'lgan funksional hududlarga ajratish muhim o'rin egallaydi. Bu borada avvalambor inshootning boshlang'ich funksional vazifalarini inobatga olish lozim, sababi, taklif qilinayotgan funksiyalarning inshootning umumiy "sig'imiga" mos kelishi va jamoat markazidagi boshqa elementlar bilan uyg'unlashuvini inobatga olish kerak.

Jamoat markazlarining qarovsiz qolishi ulardagi inshootlar holatining yomonlashishi va buzilishiga olib keldi. Bu esa nafaqat arxitekturaviy-badiy jihatlarining yuqolishiga, balki tashkil topgan majmua xajmiy-fazoviy muhitining qisqarishiga olib keldi. Shuning uchun, regenerasiya ishlarini yuqotilgan muhitni qayta tiklanishga qaratish kerak.

Bu holatda xar bir tashkilot muhiti sig'imi uning jismoniy parametrlariga bog'liq. Ular jamoat

markazining xizmat kursatish doirasi, aholi soni va mahalliy demografik hususiyatlarga bog'liq holda tanlanadi.

Kichik shaharning tashkil topgan jamoat markazlari an'anaviy yashash muhitida qulay mikroiklim yaratishning asosiy komponenti sifatida xizmat qiladi. Bu rol bir vaqtning o'zida jamoat markazlarini tashkil qiluvchi asosiy faktorlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun jamoat markazlari regenerasiya jarayonida mikroiklim yaratishning eski an'anaviy usullari qo'llaniladi. Zamonaviy jamoat markazlarining mikroiklim ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori bo'lishiga qaramay, ularning ichida qizib ketishga qarshi usuldan foydalanilganda bundanda yaxshi natijalarga erishildi. Usulning mohiyati shundaki, qulay arxitekturaviy iqlimni yaratuvchi vositalarning ishlatilish samaradorligiga nisbatan jamoat markazlari muhiti o'lchamlarining tug'ri proporsional (kengayish yoki qisqarish) bog'liqligida.

Boshqacha aytganda, agar jamoat markazi hovlili muhitning ochiqiligi kengaysa, qulay muhitni yaratuvchi vositalarning samaradorligi oshadi. Bunga qo'yidagilar kiradi:

- sayalar hosil qilish-dollon va shiypon;
- ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish usullarini qo'llash: ariqlarda suv oqimini ta'minlash, gul va bo'talar ekish; hovuzlar va atrofida chuqur tomir yoyadigan daraxtlar (chinor, qayrag'och, tut) utqazish; suv purkagichli sug'orish gulxonalar va boshq;
- tuproqning zahdagi qatlamidan foydalanib jamoat markazi binolari yoki hovlisini gruntning pastki qismida joylashtirish.

Kichik shaharning shakllangan jamoat markazlari regenerasiyasida arxitekturaviy-badiy va dekorativ qadr-qimmatlarning tiklanishiga katta ahamiyat beriladi. Ushbu holatda badiy bezaklarning konstruksiya bilan bog'liqligini izlanishdan sal yiroqlashib, boshqaruvchi bo'lakni jamoat markazini estetik markazi sifatida qarash kerak.

Shaharsozlik yechimida jamoat markazlarining tiklash va rekonstruksiya ishlari ularning funksional xizmat prinsiplarining rivojlanishini boshqarish bilan bog'liq. Shaharning tarixiy qismidagi rejabiy sxemada jamoat markazining bir maromda qadimdan joylashtirilishi bosqichma-bosqich iyerarxik tizimda maqsadli foydalangan holda jamoat markazining xizmat kursatish va shaharsozlikdagi rivojiga xizmat qiladi. Bunday struktura o'zida ikki hil jamoat markazini mujassam qilishi kerak: kichik jamoat markazi - "mikro", va kattasi "makro", unda tadqiqot natijalarida aniqlangan funksional vazifalardan kelib chiqib, u yoki bu turga bir maromda oqilona rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki nomenklatravaviy elementlarni kundalik va davriy foydalanish uchun klassifikasiyalash maqsadga muvofiq: Ko'rinib turibdiki, kundalik xizmat kursatish elementlari mikro jamoat markazlarida, kundalik va davriy xizmat kursatish elementlari makro jamoat markazlari o'zida mujassam qiladi [33].

Bu o'z o'rnida jamoat markazlari arxitekturasining ko'ptarmoqli rivojlangan tizimga, dam olish, xizmat kursatish, siyosiy jamiyat, madaniy hayot; ilmiy tadqiqot doirasining kengayishiga, joylashtirish prinsiplari takomillashishiga, xizmat doirasining yaqinlashuviga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, taklif qilinayotgan rekonstruksiya tizimi aholiga ko'p xizmat qilayotgan obyektlarni ularga yaqinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida tarixiy obidalarga yangi hayot bag'ishlaydi va ularni kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Rivojlanishni yuksaltirishda qo'yidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Funktsional-ya'ni, jamoat markaziga talablarning tanlash imkonini beruvchi va inshootlar kateqoriyasiga qarab xududni zonalashtirish;

2. Ijtimoiy-jamoat markaziga an'anaviy xizmat kursatish va madaniy-maishiy xizmat rivojiga imkon beruvchi;

3. Arxitekturaviy-shaharsozlik-jamoat markazlariga an'anaviy fozoviy-kompozision, xajmiy-rejaviy masalalarning atrofda shaharsozlik muhitiga yechimini topish imkoni. Bu talabning e'tiborli tarafi shundaki: shaharsozlikni tashkil etish va xizmat kursatishning rivojlangan metodlaridan foydalanish; jamoat markazining shaharning rejaviy qismida bosqichma-bosqich rivojlanishi; jamoat markazi tarkibidagi burtib turuvchi (dominant) elemintni kursatish, jamoat markazini esa shaharsozlik muhitida o'rnini ko'rsatish; hosil bulgan xajmiy-fazoviy karkas yaratish; an'anaviy usullardan foydalangan holda yaxlit arxitekturaviy-badiiy qiyofani yaratish-badiiy bezaklarning konstruksiya bilan uyg'unligini ta'minlash; tarixiy malakalarga asosan mahalla markazining ichki muhitida mikroklimat talablarini bajarish.

4. Iqtisodiy-jamoat markazining jipslashtirilishi va ko'paytirilishi, hosil bo'lgan landshaft yechimi variantlaridan foydalanish, markaz yechimi uchun mos hudud tanlash nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq yechim tanlash imkoni.

Har bir talabning mohiyatini anglab shuni aytish mumkinki, mahalla markazini tashkillashtirishning asosi birinchi navbatda uning shaharsozlik muhitidagi maxsuslashganligi bilan bog'liq. Natijada yuqori ijtimoiy faollik-markazlashgan darajadagi, yuqori ijtimoiy mavqeyga ega bug'inlari hosil buladi. Bunday obyektlarni takomillashtirishda aholining ijtimoiy-siyosiy faoliyatining turli ko'rinishlari, ommaviy badiiy-san'at, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ko'ngilochar tadbirlarni ochib beruvchi elemtlarni singdirish bilan muvofaqqiyatli buladi. Aytilganlarni inobatga olgan holda ekspozitsiyaga jamoat markazining funksional-rejaviy yechimi taqdim etiladi.

Jamoat markazining muhim funksiyalaridan uning muhitining jozibadorligi va ko'p jihatligi, ham yakka, ham ommaviy tadbirlar uchun joy va sharoitlar yaratilishi hisoblanadi. Jamoat markazining tashkiliy va tarbiyaviy roli ham bundan mustasno emas. Shuning uchun o'zida ham ruhiy ozuqa, ham idial muhit

jamlanmasi, ham badiy-estetik qimmatni mujassamlashtiradi. O'z navbatida, jamoat markazining arxitekturaviy qiyofasi o'zida estetik did va ehtiyoj, hamda zamonaviy shaharsozlik muhitining sifatlariga xizmat qilishi kerak. Bu obyektning ijtimoiy ahamiyatini aks ettiradi.

Jamoat markazlarining funksional va strukturaviy takomillashuvining muammoli tarafi shaharsozlik yechimi bilan bog'liq.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni kursatadiki, zamonaviy jamoat markaziga qo'yiladigan talablarni to'la qondirilishi uning qurilishlarda boshlangan iyerarxik strukturasi bosqichma-bosqich rivojlanishida amalga oshadi. Bunday strukturaning tuzilishi shahar hududining jamoat -tumanga rejashtirilishi bilan bog'liq.

Shaharsozlikda madaniy-ma'rifiy va savdo-maishiy xizmat sohalarini tashkillashtirish jamoat markazlari arxitekturasi xajmiy-fazoviy strukturasi takomillashuvini belgilab beradi. Bundan jamoat markazining katta-kichikligi va joylashuvi jamoat xizmat turlari, aholi ehtiyoji va shaharsozlik talablari qarab belgilanadi. Xar bir obyekt jamoat markazga intilishi fokusi hisoblanadi. Jamoat markazining xarakteri shaharning shaharsozlik tizimida va yangi dahalar hududida funksional foydalangan holda joylashtirilishi bilan belgilanadi.

Jamoat markazining funksionallashtirish shaklini tanlash, qo'yidagi vazifalardan kelib chiqadi: aholiga maksimal yaqinlashish; uning ijtimoiy ahamiyati o'sishiga intilish lozim. Bunga erishish uchun taklif qilinayotgan obyektlarni joylashtirishning iyerarxik strukturasi foydalanib, aholining barcha madaniy-maishiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda xizmat kursatish xajmini oshirish kerak.

Zamonaviy ijtimoiy-maishiy xizmat talablari va tadqiqot olib borilgan shaharning shaharsozlik asoslari uning tarkibida qo'yidagi muassasalarning paydo bo'lishiga olib keladi:

- ma'muriy-boshqaruv, o'zida jamaot tashkilotlari mujassamlashtirgan;

- madaniy-ma'rifiy, o'zida diniy maktablar, yoshlar markazi, bu yerda ommabop va badiy marosimlar uchun muhit yaratiladi va tarbiyaviy ahamiyatga ega uncha katta bo'lmagan memorial xudud;

- savdo-sotiq va xo'jalik, o'zida savdo-sotiq xizmatlarining yangi turlaridan foydalanib, katta bo'lmagan savdo bloklari (minimarket);

- sport va sog'lomlashtirish, aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi xar hil sport turlari bilan shug'ullanish uchun xona va maydonchalarni o'zida aks etish;

- dam olish vaqtlarni mazmunli o'tkazish, bunga asosan jamoat markazining yulaklari muhiti, qulay sharoit muhitida an'anaviy-mazmunli faol va sokin dam olishni tashkillashtirish.

Ko'rsatilgan xar bir muassasa uchun jamoat markazlari rekonstruksiyasi uchun taklif qilingan

xizmat kursatish tarkiblari nomenklaturasini singdirish mumkin.

Zamonaviy jamoat markazining sanab o'tilgan muassasalari bu obyektlarning ko'p qirrali funksional tashkilotining yo'qotuvchisi -zamonaviy shahar qurilishlarining jamoat muhiti bug'ini hisoblanadi.

Zamonaviy bosqichda madaniyat va milliy qadriyatlar rivojlanishiga talablarning ortishi jamoat markazlarini arxitekturaviy xarakteri, arxitekturaviy shaharsozlikda sifatli maishiy xizmat masalasining yechimi bilan bog'liqligi, ularning an'anaviy turlari qidirishga yo'naltiradi. Bunga avvalambor: jamoat markazi mikroiklim muxitini shakllantiruvchi prinsiplar; arxitekturaviy-kompozision muhit tashkillashtirishning usullari kiradi.

Shunday qilib, tadqiqot olib borilayotgan obyektlarning fazoviy-kompozision qiyofasi va mikroiklim muhit yaratish milliy-an'anaviy qadriyatlar va mos proporsiyalarni aniqlash bilan bog'lanadi.

Jamoat markazlarining arxitekturaviy-fazoviy kompozisiya va mikroiklimni shakllantirishga qo'yiladigan asosiy talablar, jamoat markazlarining rekonstruksiyasi uchun taklif, quyosh nuridan saqlanishni tizimlashtirish usuli natijasi hisoblandi. Shuning uchun yopiq muhitdagi jamoat markazlarini shaharning quyosh nuri ko'p tushadigan qismida joylashtirish tavsiya qilinadi. Bunda jamoat markazlari ko'cha yoki maydondan mustaqil ravishda qo'shiladi; yarim yopiq muhitli jamoat markazlari zichlik va issiqlik darajasini inobatga olgan holda ko'chalarning kesishmasida joylashtiriladi; ochiq muhitli jamoat markazlari imoratlarning zich joylashgan hollarda qo'llaniladi. Bunday hollarda jamoat markazi ko'chaning kengayishida yoki boshlanishida joylashtiriladi [19].

Bunday nuqtai nazarda elementlardan samarali foydalanish va quyosh nuridan ximoyalanish jamoat markazlarining ochiq muhiti xajmiga to'g'ri proporsional bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, jamoat markazlarida ochiq muhitning kengayishi mikroiklim tashkillashtirish vositalarining samaradorligini oshirsa, ochiq muhitni qisqartirish esa, aksincha bu vositalarning samaradorligini kamaytiradi.

Jamoat markazini strukturasi shakllantirishning navbatdagi talabi uning arxitekturaviy kompozisiyasini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu bevosita obyektning xajmiy-rejaviy muhitining shakllanishi bilan bog'liq.

Jamoat markazining xajmiy-rejaviy yechimi ilmiy tadqiqotda aniqlangan arxitekturaviy-rejaviy (yopiq, yarim ochiq va ochiq) turlarning fazoviy-kompozision sifatlarini "oddiy" va "murakkab" an'analarning davomi sifati fazoviy kompozisiya prinsiplaridan foydalanishni taqazo etadi. Buning xar biri u yoki bu turdagi jamoat markazlarining talablariga javob berishiga qarab foydalaniladi. "Oddiy" prinsip o'zida jamoat piyodalar yulaklarini aks ettiruvchi asosiy yagona rejaviy muhit atrofida inshootlarni guruhlashtirishni mujassamlashtiradi. Bunday prinsip asosida yopiq yoki yarimochiq jamoat markazlari tashkil qilinishi mumkin. "Murakkab" prinsip ochiq turdagi jamoat markazlari

uchun ikki yoki undan ortiq muhitda inshootlarni guruhlashtiradi va xar biriga alohida jamoat piyodalar yulaklari tashkillashtiriladi. Bunday hollarda jamoat piyodalar yulaklarini ko'pincha ko'kalamzorlashtirish elementlari va suvli dekorativ uskunalar bilan o'zaro bog'lanadi. Bunda arxitekturaviy-kompozision yechim bu elementlarning kursatishga xizmat qilishi kerak. Turar-joy maskanlari muhitidan foydalanish prinsiplari ham arxitekturaviy kompozisiya masalalari yechimiga kiradi.

Jamoat markazi arxitekturaviy-kompozision yechimida jamoat piyodalar yulaklari maydonlariga mo'ljallangan obyektlarda dekorativ yopmalardan foydalanish muhim omil hisoblanadi. Bu ushbu muhitning inson ixtiyoriga topshirilganidan dalolat beradi. Piyodalar yulaklari turi-o'z o'rnida bir axborot. U kompozisiya fonida asosiy o'rin: ko'chaning kompozision o'qini yoki maydonning fokus nuqtasini belgilaydi. Uning yordamida biz jamoat markazida bosh inshootining alohida ahamiyatini, uning salobati yoki aksincha, ikkinchi darajaliligini aniqlash mumkin. Tajribalar shuni kursatdiki, yopmalar sifatida an'anaviy terish usullaridan foydalangan holda pishgan g'ishtdan foydalanish ekologik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamoat markazi hovli muhitida mikroiklimni tashkillashtirish talablariga javob beradigan bunday usullar, ular orasidagi choklarni saqlash, namlikning yaxshi filtrasiyasini va yerni yumshatishni ta'minlaydi.

Zamonaviy jamoat markazi arxitekturaviy-kompozision yechimi qayta yaratishning ikki yo'lida boradi: birinchidan, jamoat markazining hosil bo'dgan xajmiy-fazoviy karkaslari; ikkinchidan, an'anaviy arxitekturaviy-badiy tashkillashtirish.

Jamoat markazlari arxitekturasi hosil bo'lgan ko'plab arxitekturaviy elementlari shu qadar o'zlarining yorqin va xayotga zavq bag'ishlovchi jihatlarini namoyon etadiki, zamonaviy qurilish amaliyotida qayta ishlangan holda foydalanish muvofaqqiyat keltiradi. Qadimiy arxitekturaviy-obraz va konstruksiyalardan foydalanib, yopmalardan foydalanishda, gumbaz sifat, qatlamlar, berk devorlarning ketma-ketligida, yog'och materiallarning (ustun, eshik, ship) faol qo'llanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda konstruksiya va dekorlarning o'zaro bog'liqligini inobatga olish kerak:

a) dekorasiya va badiy uslublar yordamida konstruksiyani namoyon etish;

b) konstruktiv yechim yordamida dekorasiyani namoyon etish;

v) badiy-estetik rejada konstruksiya-dekor, dekor-konstruksiya o'zaro bir-birini to'ldirishi.

Kichik shaharlarda jamoat markazlari arxitekturasi loyihalash metodologiyasini takomillashtirishga yangicha yondoshish, obyektlarning iqtisodiy faktorlari yechimiga bog'liq bo'lgan muammolarning qanchalik to'g'ri aniqlanishi bilan bog'liq. Shu mazmunda aytib o'tish lozimki, qo'yidagilar shaharsozlik metodologiyasini takomillashtirish vositasi bo'lishi kerak:

- jamoat markazi qurish uchun maydon tanlash;

- xududda tashkil topgan landshaftdan samarali foydalanish;

- jamoat markazlarini jipslashtirish va ko'paytirish nuqtai nazaridan ko'proq maqul yechimni tanlash.

Tanlangan maydon talab qilinayotgan mikroiklim yaratishga imkon beruvchi, xududning yetarlicha aerasiyasi, inshootlarni quyosh nuridan saqlash qulayliklari bo'lgan xududda joylashishi kerak. Odatda jamoat markazlari uchun baland relyefli jolar tanlanadi. Agar bunday joylar bo'lmasa, ularni sun'iy yo'l bilan yaratish talab qilinadi. Bu bir yo'la jamoat markazini umumiy qurilishda dominantligini belgilaydi. Jamoat markazini ko'kalamzorlashgan va suv havzalari mavjud yerlarda joylashtirish nafaqat mikroiklimni yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek kichik jamoat markazlari va butun shaharsozlik muhitida arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiyaning asosiy vositasi hisoblanadi [26].

Yuqorida keltirilgan markaz inshootlarini jipslashtirish va ko'paytirishga yangicha yondoshishlar qo'shimcha qayta loyihaviy izlanishlarsiz shaharsozlik masalalarining yuqori darajadagi yechimiga olib keladi. Bu jamoat markazlari inshootlarni jipslashtirish bilan bevosita bog'liq funksional tashkillashtirishning eng maqbul shakllari, shaharsozlik yechimining an'anaviy uslublariga taqaladi.

Taklif qilinayotgan birinchi variant o'zgartirishlarsiz an'anaviy markazlarda qo'llanishi mumkin, boisi u markaz inshootlarining jipslashtirilishiga taqaladi. Bu yerda xar bir xizmat elementi o'zaro izolyasiyalashgan tashkilotlar toifasiga kura, alohida inshoot sifatida joylashtiriladi. Bunday holat jamoat markazini bosqichma-bosqich iyerarxik shakllantirishda obyektlarni mikroansabl toifasiga qo'shishi mumkin. U o'zida kundalik xizmat elementlarini mujassamlashtirishi mumkin.

Taklif qilinayotgan ikkinchi va uchinchi variantlar yordamida mahalla markazining funksional xajmi masalasini o'zaro o'zviy holda yechish mumkin. Bu yerda jamoat markazi yirikligi hisobiga xajmini kengaytirishning ulkan imkoniyatlari, ijtimoiy-jamoat va maishiy sohaning shakl va talablariga javob beradigan, hosil bo'lgan an'anaviy xizmat kursatish elementlaridan foydalanish yuzaga keladi. Taklif qilinayotgan variantda ba'zi idoralarning qo'shilish va aralashishi hisobiga jipslashtirish mumkin. Bunda, birinchi holatda inshootlar hosil bo'lgan bir jamoaviy maydon atrofida ko'paytirib ko'chirilishi, ikkinchi holatda bir necha jamoaviy maydon atrofida ko'paytirib ko'chirilishi nazarda tutiladi.

Taklif qilinayotgan chizmada mahalla markazi inshootlarining xam zaruriy, xam imkon qadar jipslashtirish prinsipi masalasi kurib chiqiladi. Bu chizma yuqorida keltirilgan barcha varianlar uchun yagona xarekterdagi inshootlarni belgilaydi. Taklif qilinayotgan prinsiplar shahar hududidan oqilona foydalanish, uning asosida tezkorlikni oshirish, eng muhimi jamoat markazi xizmat kursatish xajmini oshiradi, bu o'z navbatida mahalla markazi ijtimoiy-

iqtisodiy samaradorligini oshiradi, demak, ilmiy izlanish maqsadining yechimini topadi.

Jamoat markazlari rekonstruksiyasi va yangi loyihalari uchun ilmiy tadqiqot natijasida taklif qilinayotgan prinsip va tavsiyalar chizma va jadvallar kurinishidagi taklif va tavsiyalar yagona umumlashgan nazariy modelda jamlangan. Model zamonaviy jamoat markazini arxitekturaviy-rejaviy va funksional tashkillashtirish barcha turlarini chetlab o'tmaydi. Jamiyat rivojida ularni tashkillashtirishning yangi shakllari vujudga keladi. Ammo, barcha an'anaviy ijtimoiy, maishiy xizmat kursatish bilan bog'liq faktorlar hayot muhitining barcha o'zgarishlariga qaramasdan shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qilishi kerak. Bularning barchasi ko'p asrlar davomida O'zbekiston zaminida jamlangan va jamoat markazlari arxitekturasini shakllantirishda asosiy arxitekturaviy-funksional milliy qadriyatlar hisoblangan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Raximov K.D. «Maxalinskiye ansambli» - Moskva.: «Sentr» 1996.
2. Raximov. K.D. «Квартальные общестественные центры исторических городов Узбекистана». diss. - Moskva.: MARXI. 1989.
3. O'ralov A.S. «Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash» - Samarqand.: 2002.
4. Salimov A.M. «Soxraneniye i ispolzovaniye pamyatnikov arxitektury Uzbekistana», Toshkent, 2009 yil.
5. O'ralov A. S. «Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash», Samarqand, 2003 yil.
6. Bulatov M.S. «Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv.» - Moskva.: «Nauka». 1988.

